

OFFIS DASTURI VA UNING YANGI IMKONIYATLARI

Juraboyev Dilmurod Muhtorjon o'g'li

*Namangan viloyati Chortoq tumani 1-sonli kasb xunar maktabi
informanika fani o'qituvchisi*

Zokirova Nargiza Sadriddin qizi

*Namangan Davlat Universiteti Amaliy matematika va
Raqamli texnologiya kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Microsoft Office dasturining imkoniyatlari ularning hususiy hollari va ularning yangilanib borayotgan versiyalari haqida gap brogan. Hozirgi zamonda Offis dasturlari paketlarini o'rni va ulardan qay darajada foydalanish yo'llari haqida umumiy tushunchalar berilgan. Har bir yangilangan versiyaning qanday afzalliklari bor ekanligi haqida umumiy tushunchalar ham berib borilgan. Offis dasturlari yildan yilga takomillashgani uchun qanday o'zgarishlarini o'z ichiga olishi haqida tushuntirib o'tilgan

Kalit so'zlar: Microsoft Office, Microsoft Windows, Windows Phone, Android, OS X, iOS, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point, Microsoft FrontPage

ПРОГРАММА OFFICE И ЕЕ НОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ

Учитель информатики профессионального училища №1

Чортоқского района Наманганской области

Джурабоев Дилмурод Мухтаржанович

Наманганский государственный университет Прикладная

математика и цифровые технологии

преподаватель технологического кафедры

Закирова Наргизы Садриддиновна

Аннотация: Рассмотрены особенности программ Microsoft Office на конкретных случаях и их обновленных версиях. Дано общее представление о месте программных пакетов Office и способах их использования в современности. Также представлен обзор преимуществ каждой обновленной версии. В нем объясняется, как программы Office менялись с годами по мере их совершенствования.

Ключевые слова: Microsoft Office, Microsoft Windows, Windows Phone, Android, OS X, iOS, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point, Microsoft FrontPage.

OFFICE PROGRAM AND ITS NEW FEATURES

Informatics teacher at Vocational School No. 1, Chortoq District,
Namangan Region

Juraboyev Dilmurod Muhtorjon ugli

Namangan State University Applied mathematics and digital
teacher of the technology department

Zakirova Nargiza Sadriddin qizi

Abstract: The features of Microsoft Office programs are discussed in their specific cases and their updated versions. General understanding of the place of Office software packages and how to use them is given in modern times. An overview of the benefits of each updated version is also provided. It explains how Office programs have changed over the years as they improve.

Keywords: Microsoft Office, Microsoft Windows, Windows Phone, Android, OS X, iOS, Microsoft Word, Microsoft Excel, Microsoft Power Point, Microsoft FrontPage Excel, Microsoft Power Point, Microsoft FrontPage

Amaliy dasturlar foydalanuvchi tomonidan aniq amallar bajarilishini ta'minlaydi. Amallarga misol keltirsak unga matn kiritish, rasm chizish, fototasvirlarni qayta ishlash, ilustrasiya, video ma'lumotlarni qayta ishlash, audio ma'lumotlarni qayta ishlash, aloqa o'rnatish, hisob – kitob ishlari kabi amallar misol bo'la oladi Amaliy dasturlardan keng tarqalganlaridan biri Microsoft Office paketidir. Microsoft Office paketi Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqariladi va er yuzining barcha davlatlarida aynan shu paketdan foydalanib kelinmoqda.

Microsoft Office – Microsoft korporatsiyasi tomonidan – Microsoft Windows, Windows Phone, Android, OS X, iOS operatsion tizimlari uchun yaratilgan idora dasturlari to'plamidir. Ushbu to'plam tarkibiga turli xildagi hujjatlar: matn, jadval, ma'lumotlar ombori va boshqalar bilan ishlash imkonini beruvchi dasturiy ta'minot kiradi.

Microsoft Office dasturlar paketi o'z ichiga bir necha amaliy dasturlarni mujassamlashtirgan. Bu dasturlarga Microsoft Word matn muxarriri, Microsoft Excel elektron jadvali, Microsoft Power Point taqdimotchisi, Microsoft Access ma'lumotlar ombori, Microsoft FrontPage Web sahifalarni tayyorlovchisi va Outlook Express elektron pochta orqali ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish maqsadida ishlatiladigan dasturlar kiradi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha dasturlar yoki hech bo'lmaganda bittasi o'rnatilishi kerak bo'lsa u holda Microsoft Office paketi inisializasiya qilinadi. Inisializasiya jarayoni odatda Windows operatsion sistemasi o'rnatilgandan keyingina amalga oshiriladi. Sababi o'rnatilishi kerak bo'lgan paket Windows muhitiga moslashtirilgan. Office dasturlarining mavjudligi foydalanuvchini to'liq qondira oladi.

Microsoft Office paketini o'rnatishdan oldin, biz o'rnatayotgan kompyuterning xotira zaxirasining mavjudligi, paket tarkibidagi dasturlarning zarurligini va qaysi komponentlarning talab etilishini bilishimiz shart. Inisializasion dastur odatda ancha katta hajmga ega bo'lganligi tufayli arxivlangan holatda kompakt disklarda (CD-R) va mantiqiy disklarda (vinchesterlarda) yozilgan bo'ladi.

Microsoft Office dasturlarini kopgina insonlar ular qaysi faoliyat bilan shug'ullanishidan qat'iy nazar egallashlari kerak. Ular yordamida hujjat bilan ishlashga bog'liq masalalarning katta qismi bajariladi. Matn muharriri matnlar bilan amallar bajarish uchun mo'ljallangan bo'lib, ular yordamida hujjatlar yaratish va formatlash, ularga jadvallar, rasmlar, turli shakllar va boshqalarni qo'yish mumkin. Word 2007 matn muharriri oxirgi 10 yillarda yaratilgan matn muharrirlari orasida nufuzli o'rinni egallaydi. Har bir yangi versiyaning yaratilishi bilan ular yana ham yangilanadi. Microsoft Word 2007 ning interfeysi shunday tuzilganki, unda aniq masalani yechish uchun ishchi sohada kerak bo'lgan jihozlarga tez murojaat qilish mumkin. Bundan tashqari Microsoft Word, haqiqatan orzu qilingan ulkan imkoniyatlarga ega

Office paketining turli versiyalari mavjud. Ularga misol qilib Office 95, OSR, OSR2, malakali foydalanuvchilar uchun Office 97 pro, yuqori interfeysga ega Office 2000, Office XP va h.k.z.lar. Yana shuni ta'kidlash joiski, har bir versiya ishlanmasining to keyingi versiya chiqqunicha ularning yangi ishlanmalari tavsiya etib borilgan va Office ning yangi imkoniyatlari qo'shimcha qilib borilgan.

Microsoft Office dasturlar paketining rivojlanishi qisqacha quyidagi jadvalda keltirilgan.

Microsoft Office versiyasi	Tarkibidagi dasturlar soni	Ishlab chiqarilgan yili
Microsoft Office 95	3	1995
Microsoft Office 97	4	1997
Microsoft Office 2000	5	2000
Microsoft Office XP	5	2001
Microsoft Office 2003	7	2003
Microsoft Office 2007	9	2006
Microsoft Office 2010	9	2009

Officening versiyasi o'zgarishi bilan uning tarkibidagi dasturlarning versiyalari o'zgarib boradi. Har bir versiyaning o'zgarishi, uning imkoniyatining kengaytirilishi, qulay interfeysi va foydalanuvchiga taqdim etilgan qulayliklari bilan farq qiladi. Undan tashqari paket versiyasining o'zgarishi bilan uning hajmi ham kattalashadi, aniqrog'i Office tarkibidagi dasturlarning imkoniyatlari oshgan sari hajmi ham

oshadi. Office tarkibidagi dasturlar uning komponentlarini tashkil etadi. Ko'pgina vaqtlarda o'xshash Office paketlari o'xshash kompyuterlarda o'rnatilgandan so'ng turli hajmlarni egallaydi. Bunga sabab komponentlarning o'rnatilganligidadir, ya'ni har bir komponent o'zining hajmiga ega. Demak paketning qaysi komponentlari yoki dasturlari o'rnatilganligidadir.

OFFICE-xp va OFFICE-2003 ikkala versiyadagi dasturlar bir-biridandeyarli farq qilmaydi, faqat OFFICE-2003 ni imkoniyati ko'proq. Shuning uchun OFFICE-2003 dasturlar paketi haqida fikr yuritamiz. OFFICE-2003 dasturlar paketini shahsiy kompyuterga o'rnatish uchun avvalambot kompyuterda Windows operatsion tizimi o'rnatilgan bo'lishi lozim.

OFFICE-2003 dasturlar paketiga quyidagilar kiradi.



Microsoft Office Word – har xil ko'rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni kiritish va ularni tahrirlashga mo'ljallangan matn muharriri.

Microsoft Office Excel har xil ko'rinishdagi hisob-kitobli ma'lumotlar, jadvallar, formulalar, funksiyalar va diagrammalar bilan ishlashga mo'ljallangan elektron jadvalli dastur.

Microsoft Office Power Point – ma'lumotlarni taqdimot (prezentatsiya), reklama qilishga mo'ljallangan taqdimot dasturi.


Microsoft Office Access – ma'lumotlar ombori (bazasi) ni yaratish va unda ishlashga mo'ljallangan dastur.

Microsoft Office Publisher - har xil tipdagi noshirlik ishlari, buklet, byuletenlarni e'lon va Web-uzellarni yaratish, va o'zgartirishga mo'ljallangan muharrir dastur.

Microsoft Office Outlook elektron pochtdan foydalanishga mo'ljallangan dastur.

Microsoft Office InfoPath – yordamida tashkilotda ma'lumotlarni yig'ish va qyta ishlashni dinamik shaklda to'ldirish va ishlatish uchun mo'ljallangan dastur.

“Средства Microsoft Office” bo'limi o'z ichiga quyidagilarni oladi:



Microsoft Office Access Snapshot Viewer- suratlarni ko'rish yordamida hisobotlarni ko'rib chiqish va yozishga sharoit yaratadi.

Microsoft Office Document Imaging - Microsoft Office Document Imaging ilova vositalari orqali grafik shakldagi matn fakslarni o'qish va qurish.

Microsoft Office Document Scanning - Microsoft Office Document Scanning grafik hujjatlar matnlarini o'qish, ko'p varaqli hujjatlarni skanerlash.

Microsoft Office Picture Manager- Microsoft Office dispetcheri yordamida grafik shakldagi fayllarni tizimlashtirish, tahrir qilish va hamkorlikda ishlatish.

Восстановление приложений Microsoft Office - Microsoft Office ilovalarini tiklash.

Коллекция картинок (Microsoft) – tovushlar, klip, rasm, suratlarni import va tizimlashtirish.

Master soxraneniyanastroek Microsoft Office 2003 - Microsoft Office ilovalarini saqlash va tiklash.

Сыфровой сертификат для проектов ВБА bu dastur tasdiqlangan sertifikat yaratadi. Ushbu dastur aynan shu kompyuterda personal makroslar bilan qo'llanilishi mumkin.

Языковые параметры Microsoft Office 2003 - Microsoft Office ilovalari uchun tilni tanlash.

Office dasturlar paketini o'rnatishda yuqorida ko'rsatilgan dasturlarni tanlash orqali, ya'ni keraklisini o'rnatish orqali kompyuter qattiq diskidagi joyni tejash mumkin. Masalan, sizni kompyuteringiz Internetga ulangan bo'lmasa Microsoft Outlookni o'rnatishingiz shart emas yoki rangli, lazerli printeringiz bo'lmasa Microsoft Puplicsherni ham o'rnatish shart emas va hokazo. Bu dasturlar keyinchalik sizga kerak bo'lib qolganida bemalol Office tarkibini yangilab bu dasturlarni o'rnatib olishingiz mumkin.

Agar siz Internetga qo'shilgan bo'lsangiz, Office dasturlar paketini Internet orqali yangilab borishingiz mumkin. Officeni kompyuteringizga o'rnatgandan so'ng bemalol matnlarni tahrirlash, na'lumotlar bazasida ishlash, hisob-kitobli jadvallarni tahrirlash va hokazo ishlarni qilishingiz mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Offis dasturlaridan foydalanish ularning versiyalari oshgani sari imkoniyatlari va qo'llanilish usullari ham kengayib borayapti. Offis dasturlari matn muharirlari bilan cheklanib qolmay zamon bilan hamnafas tarzda oshib va kuchli olg'a intilib bormoqda. Xozirgi kunga kelib offis dasturlaridan foydalanish har sohada ham o'z o'rnini egallab, barcha sohalar uchun birdek xizmat qluvchi paketga aylanib bormoqda. Shuning uchun xozirgi kunda IT ning asosiy negizi va o'rganilishining boshlang'ich tushunchasi sifatida Offis dasturlari paketini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xar qanday dasturlashtirish paketini

o'rganishdan avval albatta Offis dasturlar paketini o'rganish dastiurlashtirish sohasida ham kata ro'l o'ynaganini hisobga olsak Offis paketlari hozirgi zamonaviy dunyoning asosiy elementi sifatida qarashimiz mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 Karimov I.A. O'zbekis kelajagi buyuk davlar asari
2. Ayupov R.X Ismoilov S.I. Ayupov X.R. Xususiy kompyuterlarning ishlatilishi T;TMI 2022 yil
- 2 Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan. Toshkent-2020
- 3 Ermatov SH Shaxsiy kompyuterlarning operatsion tizimlari, qurilmalari va vositalari. Toshkent 2007
4. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/informatika-va-at/microsoft-office-dasturlar-paketi-va-ularning-vazifalari-muharrir-dasturlar>
- 5 <https://kompy.info/ofis-dasturlari-va-ularning-yangi-imkoniyatlari-ofis-dasturlar.html>